



O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi rahbariyati, imtihon jarayonlarini qabul komissiyasi raisi, institut rektori, professor Nodirbek Sayfullayev va jamoatchilik kengashi a'zolari bevosita kuzatib borishdi.

Komissiya a'zolari imtihon jarayonining adolatli va shaffof o'tishini ta'minlash, abituriyentlarning ijodiy imkoniyatlarini haqqoniy baholashga alohida e'tibor berildi.

Rektor va komissiya a'zolari abituriyentlar va ularning ota-onalari bilan uchrashib, yoshlarning imtihonlarga tayyorgarlik holati, ular uchun yaratilgan shart-sharoitlar haqida fikrlari tinglandi.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida kasbiy (ijodiy) imtihonlari bo'lib o'tdi



Yangi o'quv yiliga tayyorgarlik muhokama qilindi



16-iyul kuni O'zDSMI rektori, professor Nodirbek Sayfullayev prorektorlar, fakultetlar dekanlari hamda bo'lim boshliqlari ishtirokida yig'ilish o'tkazdi.

Yig'ilishda asosiy e'tibor yangi 2024-2025-o'quv yiliga tayyorgarlik hamda qabul jarayonlari masalalariga qaratildi. Xususan, qabul jarayonlarini yuqori saviyada o'tkazish, bu borada ochiqlik va shaffoflik ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar tahlil qilinib, yangi o'quv yiliga puxta tayyorgarlik ko'rish bo'yicha barcha mas'ullarga tegishli topshiriqlar berib o'tildi. Bundan tashqari, kafedralarning bugungi holati, 2024-2025 o'quv yilida professor-o'qituvchilarga o'quv yuklamalarini adolatli taqsimlash hamda o'quv rejalarini o'z vaqtida tasdiqlatish masalasi muhokama etildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori bilan Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati institutining o'quv ishlari bo'yicha prorektori - rektori vazifasini vaqtincha bajaruvchi etib tayinlangan institutning Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektori Eldor Shermanov hamda Toshkent shahridagi "S.A.Gerasimov nomidagi Butunrossiya davlat kinematografiya instituti" federal davlat byudjeti oliy ta'lim muassasasi filialining direktori lavozimiga tayinlangan ovoz rejissyorligi va operatorlik mahorati kafedrasini mudiri Iqbol Meliqo'ziyevlarning ham keyingi faoliyatiga muvaffaqiyat tilanib, ularga institutning esdalik sovg'alari topshirildi.

Yig'ilish so'ngida kun tartibidagi asosiy masalalar yuzasidan rahbar xodimlarning fikr-mulohazalari, takliflari tinglandi.



O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektorining tegishli buyrug'iga asosan Mirzohid Qurbonov institutning Ishlar boshqarmasi boshlig'i lavozimiga tayinlandi.

Mirzohid Qurbonov 1984-yilda Andijon viloyatida tavallud topgan. O'zbekiston davlat konservatoriyasini cholg'u ijrochiligi mutaxassisligi bo'yicha tamomlagan.

Tayinlovga qadar O'zbekiston Badiiy akademiyasining ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish va metodik ta'minlash boshqarmasi boshlig'i lavozimida ishlab kelgan.

Tayinlov

Bugungi sonda:

Raqsga ko'chgan tuyg'ular

"Bahor" ansamblning paydo bo'lishi, shakllanishi, o'ziga xos repertuar dasturi vujudga kelishi uning asoschisi, rahbari mashhur raqqosa Mukarrama Turg'unboyeva nomi bilan bog'liq. Aslida o'zbek raqs san'atining rivojida, yurtimiz va dunyoda dong taratishida bu benazir san'atkorning xizmati beqiyos. U butun umrini, aql-idroki, mahorati va tajribasini san'atga, xususan, raqs san'atga bag'ishladi.



Buni umr derlar...

Goh radioda, goho televizorda bo'lsin, O'zbekiston xalq artisti Ma'murjon To'xtasinov ijrosidagi qo'shiq yangrar ekan, albatta, uni yuz bor eshitsak ham ilk bora tinglayotganday jon qulog'imiz bilan tinglaymiz. Hofizning yangroq va tiniq ovozi hamda har bir nafasidagi nolaga monand tebrana boshlaymiz. Undagi ajib sehr qalbimizga yetib borib, nafaqat vujudimizda, balki jon tomirimizda sel kabi oqadi, so'z va soz sehriga mast bo'lamiz...



"O'n besh yoshli kapitan" asari haqida

O'n besh yoshida kapitan bo'lishga erishgan Dik Send obrazida o'smirlar uchun o'rnak bo'ladigan jihatlar juda ko'p. Bolaligidan yetimlikda ulg'aygan bosh qahramonning hayotdan dars olish davri anchagina erta boshlanadi. Shunday bo'lishiga qaramay, tanlagan yo'lidan qaytmaydigan, chidamli, ilmni sinchikovlik bilan o'rganadigan, qo'rqmas, yosh bo'lishiga qaramay teran fikrli va o'ta kuzatuvchan bo'lib ulg'ayadi.





Ayapbergen Otegenov qoraqalpoq xalqining musiqaga oshufta o'g'loni. Bastakorlik sohasida o'z ijodiy husnixatiga ega ijodkor. Notalardan sirli-sehrli olam zavqini ulashayotgan cholg'uchi. Musiqani qalbiga jo etgan musiqaparvar.



Musika olamiga uni musika sas-sadolari yetaklagan ekan. O'zbekchilikda ko'p oilali xonadonni katta hovli, deymiz. Kunlarning birida katta hovlining jajjigina bolajoni Ayapbergen yo'qolib qoladi. Uy kattalari xavotirda. Hozirgina hovlida o'ynab yurgan edi-ku. Qo'ni-qo'shninikida ham yo'q. Mahalla bolalari orasida ham yo'q. Izlamagan joy, qoqmagan eshik qolmadi. Buni qarangki, bolakay qo'shni mahallada to'y bo'layotgan xonadonda ekan. Musika ovozigacha ergashib, to'yxonagacha boribdi. Qo'shiq ijro etayotgan hofizga-yu, musika chalayotgan cholg'uchilarga maftun bo'lganicha bir joyda dong qotibdi. Shu-shu mabodo bolakay "g'oyibnazar" bo'lsa, uy kattalari to'g'ri to'yxonaga yo'l oladilar.

O'yinqaroq Ayapbergen tengqurlaridan farqli ravishda goh supurgini cholg'u qilib chalar, goh tog'orani dang'llatib nog'ora qoqardiki, eshitgan quloq qomatga kelardi. Bog'cha tarbiyalanuvchisi paytida, ilk musika mashg'ulotida pianinodan taralayotgan kuy-navo bolakayni o'ziga butkul sehirlyaydi. Mana shu katta hajmdagi musiqiy asbob murg'akkinani fikru xayolini o'g'iraydi. Bunchalar yoqimli, sehirli kuy taralmasa! Bolakayning xayolidan o'tgan birinchi taassurot shu bo'ldi. Pianinoga, undan taralayotgan kuyga shu qadar maftun bo'ldiki, hatto, peshindagi uyqu mahalda yashirincha musiqaxonaga yo'l oldi.

Pianino qarshisida hayratda. Goh u yonidan, goh bu yonidan o'tib tomosha qilar, goh mehr bilan silab-siypab qo'yardi. Pianino qopqog'ini asta ochib, barmoqchalari bilan bir-ikki chalib ham qo'yadi. Bolakaydagi pianinoga bo'lgan bu talpinish boshqa kunlari ham takrorlanadi.

Allambergan va Almaxanning to'ng'ich farzandi Ayapbergen shu alfoz o'z bolalarcha musiqiy dunyosida ulg'ayib boradi. Ota-ona fahmaydiki, bu bolada musiqaga moyillik tabiatan ekan. Musika ostonasidan xatlansa, bolajondan albatta "nimadir" chiqadi. Musika farzandining peshonasiga yozig'liq taqdir ekanligini qalban his etgan Almaxan ona, dadillik bilan "Bolalar musika va san'at maktabi"ning eshigini qoqadi. O'g'lini yetaklaganicha, musiqiy ustoz huzuriga kirib boradi. Ona o'g'lini milliy cholg'u dutor yo'nalishida tahsil olishini istaydi. Musiqiy tahlilda bolada eshitish, his va idrok etish, eslab qolish qobiliyatini payqagan musika ustoz ona-bolaga pianino yo'nalishini maslahat beradi. Bu maslahat va taklif Ayapbergenning ayni ichki xohish va tug'yonlari edi.

Musika Ayapbergen uchun qalb chanqog'ini qondiruvchi chashma edi go'yo. Notalardan kuy-navo yozish sir-asrorlarini o'rganib borar ekan qalbdagi huzur, mavjlanish, yuksalish hislarini tuyadi. Musika o'y-fikr, qalbni poklovchi ne'mat ekanligini anglay boshlaydi. Bu sohadagi "ko'z ochib ko'rgan" ustoz Mansura Seyitniyazovadan musiqaning alifbosini qunt bilan o'rganadi. Musika va san'at maktabidagi yetti yillik tahsilda Ayapbergenning qalbi bilan birgalikda orzu-havaslar ham yuksalib boradi. U musiqadan boshqa soha vakili bo'lishni xayoliga sig'dirolmasdi. Chunki musika kundalik hayotida suv va havoga aylangan edi.

O'rta maktab bilan barobar musika va san'at maktabini tamomlagan Ayapbergen mamnuniyat bilan hujjatlarini O'zbekiston davlat konservatoriyasiga topshiradi. Musika sehiri va mehrini qarangki, yosh yigitcha olis Qoraqalpog'istondan Toshkentga qo'yni-qo'nji orzu-havasga to'lib, qanot qoqib uchib keladi. Bu dargohda 2007–2012-yillarda bakalavr, 2013–2015-yillarda magistratura bosqichida "Cholg'u ijrochiligi" (fortepiano) yo'nalishi

bo'yicha tahsil oladi. Musika maktabida olgan bilimlari institutda yanada sayqallanib, ravshanlashadi.

Konservatoriya Ayapbergen uchun chin ma'noda bilim o'chog'i bo'ldi. Uni musika dunyosiga yetaklagan ilk ustoz Mansura Seyitniyazovadan so'ng, professor Marat Gumarov musika dunyosining ikkinchi eshigini ochdi. Shogirdining qo'lidagi yetaklaganicha musika ilmining o'nqir-cho'nqir, past-baland ko'chalaridan yetakladi. Sohadagi rohat mashaqqatlar evaziga kelmoqligini bo'lajak bastakorga uqtirishdan charchamadi: "Ijodkor o'zi dam olsa ham miyasi ijod bilan band bo'lishi kerak", – deydi ustoz shogirdiga. Ustozning har bir pand-nasihatlarini Ayapbergen qalbiga joylaydi. Fikru xayoli musika bilan band bo'lib, inson qalbiga musaffolik baxsh etuvchi asar yozish istagida kunni tungga, tunni tongga ulaydi.

Ijodiy izlanishlar, halol mehnatlar mukofoti Ayapbergen bugun musika olamida, bastakorlik sohasida katta yutuqlarga erishdi, ta'bir joiz bo'lsa, ismi-sharifi el og'ziga tushdi. U bastalagan kuy-musiqalar xorij musiqashunos hamda musika ixlosmandlarining qalbiga yo'l oldi, e'tirofiga sazovor bo'ldi. Ijod mahsullari bilan yurt kezman yosh bastakor ichki kechinmalarini shunday izohlaydi: "Musika qalbning tilsiz, so'zsiz malhami. Insonga dard-alamlaringizni so'z bilan tushuntirib yoki yetkazib berolmasangiz, yig'i yordamga keladi. Ko'zyosh va ovoz ohangining uyg'unligi qalb tug'yonlari jo'sh uradi, qalb yaralari yangilanadi, tirmaladi. Endi siz qarshingizda yig'layotgan insonning ichki haroratini yaqqol his etasiz. Musika ham xuddi shunday. Qalb nolasi. Maqsadim, musiqaning kuch-qudratini qalblarga singdirish. Kuy bastalab va kuy chalib ruhияtimda, jismu tanimda kechayotgan rohatni tinglovchilarga ham ulasha olsam, o'zimni baxtiyor his etaman", – deydi suhbatda Ayapbergen Otegenov.

Hali institut talabasi bo'lmasdan avval, ya'ni o'quvchilik paytlaridanoq Ayapbergen musika sohasida yutuqlarga erisha boshlaydi. Yosh yigitcha 2006-yilda Rossiya Federatsiyasining Novosibirsk shahrida o'tkazilgan Vera Lotar Shevchenko xotirasiga bag'ishlangan xalqaro bolalar musika tanlovida g'olib bo'lib, diplom bilan taqdirlanadi. Italiyaning Filadelfiya shahrida 2013-yilda bo'lib o'tgan Paulo Serrao nomidagi xalqaro pianinotchilar tanlovida ishtirok etib, faxrli I-darajali mukofotni qo'lga kiritadi. Shuningdek,

OZODA SHOBILOLOVA,
TEATRSHUNOS

Ispaniyaning Barselona shahrida 2019-yilda bo'lib o'tgan "FIESTALONIA MILENIO" xalqaro festival tanlovida faxrli I-darajali mukofotga sazovor bo'ladi.

Ayapbergen teatr va kino san'atida ham samarali ijod etib kelyapti. O'zbek Milliy akademik drama teatrlarining repertuarini bezab kelayotgan "Jaloliddin Manguberdi" tarixiy drama (2020-yil), "O'zgalar dardi" jiddiy komediya (2021-yil), "Urush odamlari" drama (2021-yil), "Adolat fasli" (2022-yil) tarixiy dramalariga musika bastalab, san'atshunos va teatrshunos mutaxassislarining ham nazariga tushdi. Mazkur spektakllarni tomosha qilgan bir teatrshunos sifatida aytamizki, sahnaviy haroratni yuksaltirgan, voqeiy-hodisotlardagi badiiy ta'sirchanlikni oshirgan, tomoshaviylikni ta'minlagan musiqiy salohiyat alohida e'tirofga munosib. Yana bir quvonarli jihat, Ayapbergen sarmahsul ijodkor. Ijodni ijod chaqiradi. Teatr bilan bir vaqtda ko'p qismli "Ayjamal" (Qoraqalpog'iston telemahsuli 2020-yil), "Sen uchun" (2020-yil) filmlariga ham kuy yozdi.

Qalbidagi tug'yonlar ohangga ko'chsa, o'zini baxtiyor his etadigan Ayapbergen 2021-yildan e'tiboran "Eurasian Water" fondi "World Aral Region Charity" loyihasida bastakorlik faoliyatini yuritmoqda. Uning qalbidan to'kilgan "Araldan umit" (2017-yil), "Bir ko'rishda muhabbat" (2018-yil), "Tushda uy tomon yo'l" (2019-yil), "Qara jorg'a" (2019-yil), "Xojeli aqshami" (2019-yil), "Yo'l" (2019-yil), "Karakalpachka" (2019-yil), "Yernazar ala koz" (2019-yil), "Onaning sehirli beshigi" (2019-yil), "Dengiz bo'yidagi tong shu'las" (2019-yil) musiqiy asarlari uning ijodiy salohiyatidan, ixlosidan, shijoatidan va zavqidan yana bir karra so'z ochadi.

U ijodni mashaqqatlar bilan sevadigan va qadrlaydigan ijodkor. Ichki his-tuyg'ularini notalarga tushiradigan bastakor. Musika bilan uning hayoti go'zal va rangin. Aniqrog'i, musika hayotining mazmuni. Pianino qarshisidagi kundalik mashq qalb malhami. Ko'ngil istagi. Ayapbergenga: kasbingizning shirin mashaqqatlaridan rohatlanib, ijod maydonini nodir va javohir asarlarga boyitavering, deya tilak bildiramiz.

Raqamlashtirish davrida axborot-kutubxona xodimlari malakasini oshirish

Bugungi kun talablaridan biri, axborotga ega bo'lishni tezlashtirish va sifatini oshirishdir. Axborot deganda, tor doiradagi kunlik yangiliklarni tushunish kerak emas. Kutubxonaga kelgan yangi adabiyotlar, gazeta, jurnallar haqida kitobxonlarga xabar berish kerak. Buning uchun albatta har bir kutubxonada malakali xodimlar ishlashi zarur.

Mamlakatimizdagi axborot-kutubxona muassasalaridagi dolzarb muammolardan biri bo'sh o'rinlarning ko'pligi, mutaxassislarining yetishmasligidir. Bu holat o'z o'rnida ishga olinayotgan mutaxassislarga qo'yilgan talablar darajasini pasaytiradi. Ushbu muammo yillar davomida o'z yechimini topadi, albatta. Bugungi kunda, yurtimizda 7 ta oliygohda kutubxonachi kadrlar tayyorlanmoqda. Bular quyidagilardan iborat:


1. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti;
2. Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot-texnologiyalar universiteti;
3. O'ZDSMI Nukus filiali;
4. O'ZDSMI Farg'ona mintaqaviy filiali;
5. Termiz davlat universiteti;
6. Namangan davlat universiteti;
7. Qarshi davlat universiteti.

Respublikamizdagi barcha kutubxonalarga metodik markaz hisoblangan Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Milliy kutubxonasining shtat birligida: umumiy ish shtati 227 nafarni tashkil qiladi.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, 33 ta

vakant ya'ni bo'sh ish o'rne mavjud. Qolaversa, ishlayotganlarning barchasini 100% oliy ma'lumotli deb ayta olmaymiz. Kutubxonachi, mutaxassislarining malakasini oshirish maqsadida Rossiya davlat kutubxonasi tomonidan tashkil etilgan "Kutubxona fondlarini saqlash asoslari" (46 akademik soat) va "Kutubxona fondi xavfsizligi" (62

akademik soat) mavzularidagi masofaviy o'quv kurslari, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazi tomonidan tashkillashtirilgan o'quv kurslari, yuristlar malakasini oshirish markazi tomonidan tashkil etilgan "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar bo'yicha" malaka oshirish kurslari tashkil etildi. Bugungi kunda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat, tuman axborot kutubxona markazlarida jami kadrlar soni 4151 tani tashkil qiladi. Umumiydan



23 foizigina oliy ma'lumotli mutaxassislardir, qolgan 77 foizini o'rta ma'lumotli kadrlar tashkil qiladi. O'z o'rnida kutubxonachi xodimlar bilan ishlashda bir qancha muammolar mavjud, ya'ni, rahbar va xodim munosabatlarida. Bu borada ushbu yechimlarni taklif qilishimiz mumkin:

- Mutaxassislarining kasbga bo'lgan motivatsiyasini oshirish;
- lavozim o'sishini ta'minlash;
- Yetakchilik tizimini rivojlantirish;
- Ish haqini oshirish;
- Mutaxassis malakasini analiz qilib baholash, kutubxonaning kadrlar strategiyasiga muvofiqlik darajasini aniqlash va boshqalar.

Axborot-kutubxona muassasalarida faoliyatini o'rganish natijalariga yzlanadigan bo'lsak, quyidagi natijalarni ko'rishimiz mumkin:

- kutubxonalarda faoliyat olib borayotgan kadrlar kutubxonachilik sohasi mutaxassisi emas (60 foiz);
- Kadrlarning elementar kompyuter savodxonligi ko'nikmasiga ega emasligi;
- Mutaxassislarining soha bo'yicha chuqur bilimga ega emasligi hamda yosh kadrlarning ko'lami va ularning salohiyatini yetarli darajada emasligi;
- Rahbarlarning kasbiy bilimlari, rahbarlik salohiyati talab darajasida emasligi;
- Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tasarrufidagi oliy ta'lim



DILDORA IRGASHOVA,
"KUTUBXONA-AXBOROT
FAOLIYATI FAKULTETI"
3-BOSQICH TALABASI

axborot-resurs markazlarida oliy ma'lumotli axborot-kutubxona sohasi mutaxassislari ozchilikni tashkil etishi hamda soha bo'yicha malakasi etarli bo'lmaganlarga (laborantlar) kutubxonani yuritish yuklatilganligi, malakasini, mavjud kadrlarning malakasi deyarli oshirilmaganligi;

- Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tasarrufidagi umumta'lim va ixtisoslashgan maktab kutubxonachilarining deyarli malakasi oshirilmagan, malaka oshirish bo'yicha ko'nikmalarga ega emasligi;
- Kutubxonachilarining ko'pchiligi soha mutaxassisi emas, maktabda fan o'qituvchisi bo'lib, 0.5 stavka kutubxonachi lavozimida ishlashi.



Raqsqa ko'chgan tuyg'ular



Bahor...

Bu so'zni eshitish bilan kishining ko'ngli ravshan tortadi, kayfiyati ko'tariladi. Ko'z o'ngida lolazorlar, bodroq-bodroq bo'lib ochilgan o'rik, gilos, olcha, olma gullari namoyon bo'ladi, ularning ifori dimoqni qitiqlaydi. Qahraton qishning zahridan eson-omon chiqqanidan xushnud bo'lgan qushlarning shodon chug'ur-chug'uri dilga orom, zavq va g'ayrat bag'ishlaydi. Shoir aytganidek, har bahor shu bo'lar takror.

Men har bahor ana shunday huzurbaxsh tuyg'ular og'ushiga kirar ekanman, O'zbekistonimizning yana bir bahori – "Bahor" raqs ansamblini eslayman. Bu ansambl bir vaqtlar naqadar mashhur edi. Dunyoning ne-ne mamlakatlarining san'at muxlislari olqishlagan bu ansambl raqqosalarini, mahoratiga tan bergan, lol qolgan. Shu tufayli o'zbek milliy raqs san'atimiz jahon uzra qanot qoqqan edi.

Ushbu ansamblning paydo bo'lishi, shakllanishi, o'ziga xos repertuar dasturi vujudga kelishi uning asoschisi, rahbari mashhur raqqosa Mukarrama Turg'unboyeva nomi bilan bog'liq. Aslida, nainki "Bahor" ansambli, umuman, o'zbek raqs san'atining rivojida, yurtimiz va dunyoda dong taratishida bu benazir san'atkorning xizmati beqiyos. U butun umrini, aql-idroki, mahorati va tajribasini san'atga, xususan, raqs san'atga bag'ishladi.

Men bu mashhur san'atkor bilan bir necha marta suhbatlashish baxtiga muyassar bo'lganman. Shulardan biri haqida to'xtalmoqchiman...

Xotiram pand bermasa, 1977-yil edi. "Sharq yulduzi" jurnali tahririyatidan Mukarrama Turg'unboyevaning hayoti va ijodi haqida maqola yozib berishimni so'rashdi.

Mukarrama Turg'unboyevaga 24 yoshida O'zbekiston xalq artisti faxriy unvoni berilgan. 1976-yilda Hamza nomidagi O'zbekiston davlat mukofoti bilan taqdirlangan. U respublikamizda ommaviy raqs san'atining asoschisi hisoblanadi. "Bahor" ansambliga O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan faxriy unvoni berilgan edi.

Mukarrama opa sipo kiyinardi, yaltir-yultir kiyim kiyganini sira ko'rmaganman. Sochlarini silliq turmaklar, ixchamgina sumkasini chap qo'ltig'iga qistirib, poshnasi uncha baland bo'lmagan tufisini taq-taq bosib, ildam yurar edi. Yurishlarida vazminlik, ishonch zohir edi. Hovliqish yoki sustkashlik bo'lmasdi, qaddini tik tutib, yon-atrofga alanglamay shaxdam odimlardir. Ochig'ini aytganda, opaning yurishi ham san'at kabi edi. O'ziga juda yarashgan salobati bor edi. Ana shu salobati opani "himoya" qilardi, shu tufayli har kim ham yaqiniga bora olmas, hadiksirar edi...

Bir kuni ertalab, "Bahor" konsert zaliga bordim. Oradan ko'p vaqt o'tmay, opa kirib keldi. Eshikog'asi dast o'rindan turib, salom berdi va meni ko'rsatib, bu yigit sizni kutib turibdi, dedi. Opa, nima gap, degandek, menga savolchan yuzlandi. Maqsadimni aytdim. Opa o'ziga juda yarashgan nimtabassum qildi.

– Men haqimda maqola yozmoqchiman, deng... Konsertlarimizni ko'rganmisiz? Olloh qudrat, jasorat berdimi, dadil gapirdim:

– Ha, albatta ko'rganman. Ba'zi qizlaringiz haqida maqola ham yozganman, dedim. Opa so'ramasa-da, qo'shib qo'ydim: Dilbar Abdullayeva, Gulsum Hamroyeva, Nurxon Zulunova haqida...

Opaning chehrasida mamnunlik sezildi.

– Shunaqa deng... Demak, "Bahor"ning muxlisi ekansiz-da.

– Shunday.

– Unday bo'lsa, yarim soatdan keyin repititsiya zalimizga chiqing. Avval repititsiyamizni ko'ring, qolganini keyin gaplashamiz.

Shunday dedi-yu, o'ziga xos ildam qadamlar bilan kirib ketdi...

Ansamblning repititsiya zaliga chiqdim. Mashg'ulot boshlangan ekan, opa menga bir chekkadan joy ko'rsatdi.

– Shu yerda o'tirib kuzating, - dedi.

Keng, yorug' zal. Uning bir taraf devori poldan shiftgacha oyna. Shu tufayli zal yanada katta ko'rinadi. Qizlar oynaga qarab mashq qiladi. Opa qaysi qiz qanaqa harakat qilayotganini kuzatib turar ekan, kimningdir harakati o'xshamasa, ismini aytib, tanbeh beradi. "Bunaqada raqs chiqmaydi. Umumiy ansamblidan chiqib ketyapsan. Vujuding ham, xayoling ham zalda bo'lsin," dedi. Voajab! Opa qizlarning fikri-xayolini ham uqib turar ekan-al! Qoyil!

Mashg'ulot tugagach opa bilan uzoq gaplashdik. Suhbat asnosida opa to'g'risidagi fikrlarim o'zgardi. Shunday mashhur san'atkor, ba'zilar o'ylagandek, dimog'dor, kattazang emas, aksincha, juda samimiy, kamtar inson ekan. Rasmiyatchilikni yig'ishtirib, ochiq, dildan suhbat qildi, xuddi o'zining o'g'li yoki ukasi bilan gurunglashib o'tirgandek, ochilib gapirdi, boshidan o'tgan yaxshi-yomon kunlarni goh kulib, goh mahzun tortib hikoya qilib berdi. Suhbatning asosiy mag'zi shu bo'ldiki, Mukarrama opa san'atni, xususan, raqs san'atini hamma narsadan ustun qo'ygan. O'zbek milliy raqs san'atini olamga yoyishni hayotining asosiy mazmuni, deb bilgan.

Respublikamizda Mukarrama Turg'unboyeva nomini eshitmagan, uning san'atidan bahramand bo'lmagan inson yo'q. Uni o'zbek raqs san'ati, ayniqsa, ommaviy raqs san'atining asoschilaridan, dovrug'ini olamaro tanitganlardan, deb biladilar.

O'zbek milliy raqs san'atini, uning mehnati – ijrosi, rahbarligi ishtirokisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ana shu ulkan raqqosa san'at gulshaniga dastlab aktrisa sifatida kirib kelgani, ajoyib obrazlar galereyasini yaratganini hamma ham bilavermasa kerak.

Mukarrama Turg'unboyeva Muhiddin Qoryoqubov yordamida Samarqand davlat musiqali teatrlarining yordamchi guruhiga qabul qilinadi. 1929-1933 yillarda shu teatrdagi qo'yilgan bir necha spektakllarda yetakchi rollarni ijro etadi. "Arshin mol olon"dagi Osiyo, Zebo, "Halima"da Oynisa, Xoljon xola, "Ichkarida" esa, Asaxon rollari shular jumlasidan.

Uning bolalik davri og'ir yillarga to'g'ri keldi. Bunday sharoitda xotin-qizlarning sahnaga chiqishi, raqsqa tushishi, rol ijro etishi, ashula aytishi – ularning hayotlari uchun xavfli hisoblanardi.

Hali o'ngulidan bir guli ochilmagan navnihollar quyosh yuzini ko'rmay xazon bo'lardi. Tursunoy Saidazimova, Nurxon Yo'ldoshboyeva kabi san'at g'unchalarining fojeali taqdiri kimning qalbini larzaga keltirmagan deysiz?

Mana shunday qiyin sharoitda san'atga kirib keldi. U spektakllarda rollar ijro etish barobarida raqs san'atiga qiziqishi ortdi. Usta Olim Komilov va Tamaraxonimdan bu borada ko'p narsa o'rgandi. Usta Olim bilan hamkorlikda "Doira raqsini" yaratdi. Raqs va uning ijrosi barchaga ma'qul tushdi. O'zbek raqs san'atining nodir namunalaridan biriga aylandi.

Yillar... San'atkor hayotining har bir yili umr daftarining rang-barang, bir-biridan mazmunli va jozibali raqslar bilan bezab bordi. "Qari navo", "Jonon", "Ozodlik", "G'ayratli qiz", "Munojat", "Andijoncha" kabi o'nlab raqslar, uning ijodiy biografiyasini, umr daftarining javohirlaridir. U mumtoz raqslarni ham, ilg'or voqealarni tasvirllovchi raqslarni ham, xalqimizning fidokorona mehnatini madh etuvchi raqslarni ham birdek mahorat bilan ijro etadi. "Ozodlik" raqsi birgina Mukarrama Turg'unboyeva ijodida emas, balki butun o'zbek xalq raqs san'atida alohida o'rin egallaydi. Unda o'zbek xotin-qizlari o'zining erki va haq-huquqini tanishi ta'sirli ifodalangan.

Bu kabi g'oyaviy-badiiy yuksak raqslar raqqosa ijodida ozmunchami? Turli xalqlar raqslarini aytmaymizmi?! Eroncha, hindcha, pokistoncha, tojikcha, koreyscha, afg'oncha va hokazo. M.Turg'unboyeva ijro etgan va sahnaga qo'ygan raqslar jamlanib, kinoga olinadigan bo'lsa, yuzlab kinolenta kerak bo'ladi. Bu gapda hech qanday mubolag'a ham, bo'rtirma ham yo'q!

M.Turg'unboyevaning "Bahor" ansamblining tashkilotchisi sifatidagi faoliyati o'zi bir umrga tatiydigan ishdir. Bahordek dilbar, tarovatli, ko'rkam ansambl tuzish niyati unda Toshkent xoreografiya bilim yurtida o'qituvchilik qilib yurgan kezlari tug'ildi. Bu ansambl o'zbek raqs san'atining ko'zgusi bo'lishi kerak. Shu niyatda o'ziga yoqqan qizlarni to'pladi.

1954-yil bo'lajak "Bahor" ansamblining a'zolari yig'ildi. Tamara Yunusova, Zulayho Rahmatullayeva, Dilbar Abdullayeva, Liliya Rasulova, Erkinoy Rasulxojayeva, Ra'no Nizomova, Dilara Karimova, Valentina Romanova, Alla Rahimjonova, Samiy Ahmadiyeva, Erkinoy Rasulova ansamblning dastlabki a'zolari edi. Tez orada navqiron ansambl o'zining repertuar dasturiga ega bo'ldi. Uning konsertini respublikamiz va qardosh o'lkalarning san'at muxlislari zavq-shavq bilan tomosha qila boshladilar. Ansambl san'atkorlari 1957-yil Moskvada o'tgan jahon student va yoshlarining festivalida qatnashib, boy repertuari, yuksak ijrochilik mahorati tufayli festival laureati bo'ldi.

"Bahor"ning safi yildan-yilga iste'dodli raqqosalar bilan kengayib, repertuari rang-barang raqslar bilan boyib bordi. M.Turg'unboyeva har doim o'z shogirdlariga tinimsiz izlanishni, qunt bilan mashq qilishni o'rgatdi. Shogirdlari esa, ustozni izidan borib, har bir raqsda biror fikrni ifoda etish, raqsni har jihatdan chiroyli ijro etishni o'rgandi. Natijada ularning raqslari kishiga orom bag'ishlaydi, dilini yayratadi. Ansambl san'atkorlari ikki yuzdan ortiq baquvvat konsert nomerlari tayyorladi.

Ansambl san'atkorlari va uning rahbari Mukarrama Turg'unboyeva mahorati shundaki, qadimdagi raqslarni ommaviy ijro etishni tikladi. Raqs jonkuyari bo'lgan M.Turg'unboyeva ilgaridan raqslarni ko'pchilik bo'lib ijro qilishni yoqtirardi, shuning yo'llarini qidirdi. Bu haqda ustoz Usta Olimga ham bir necha marta aytgan, uning bevosita ko'magi bilan "Pilla", "Paxta", "Katta o'yin" singari raqslarning ommaviy talqinini ishlab chiqadi. "Bahor" ansamblini tashkil etgach, ana shu ezgu niyatini amalga oshiradi. Ansambl san'atkorlari repertuarida o'nlab shunday ommaviy raqslar o'rin olgan edi. Birgina "Bahor vals"ni olaylik, raqsda joziba, tarovat kishining diliga naqadar yaqin, aziz. Raqqosalarning tovusdek xirom aylashi raqs ruhiga monand. Mazkur raqsni tomosha qilib, sahnada bahorning bir parchasini ko'rgandek bo'lasiz. O'zbekiston xalq artisti Muhammadjon Mirzayev musiqasi bo'yicha qo'yilgan ushbu

**MAMATQUL HAZRATQULOV,
O'ZBEKISTONDA XIZMAT
KO'RSATGAN JURNALIST**

raqs ansamblning tashrif qog'oziga aylandi. Chunki ansamblning har bir konserti ana shu raqs bilan boshlanardi.

1961-yilda mustaqil jamoa sifatida ish boshlagan "Bahor" ansambli turli unvon va mukofotlar bilan taqdirlandi. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist unvoni berildi. Bu muvaffaqiyatlar zamirida uning badiiy rahbari Mukarrama Turg'unboyevaning sidqidildan qilgan mehnatlari mujassam.

"Bahor" ansambli tarkibida ijod qilgan Ravshanoy Sharipova, Ma'mura Ergasheva, Nasiba Madrahimova, Valentina Romanova, Nurxon Zulinova, Gulsum Hamroyeva va boshqa raqqosalarning o'yinlarini kim miriqib tomosha qilmagan deysiz? Birgina "Yetti go'zal" raqsini olaylik. Har bir go'zal bir xalqning vakilasi. Uning harakatlari, o'yinlari, imo-ishoralari bilan o'sha xalq san'ati bilan tanishish mumkin edi...

Mukarrama opani jahongashta san'atkor deyshardi. Rost gap, festival, adabiyot va san'at kunlari, yirik tantanalar, bayramlarga u o'z san'ati bilan fayz kiritar edi. Yer sharining ko'pgina mamlakatlarida o'z san'ati va ansambli bilan mehmon bo'lgan. Hindiston, Pokiston, Singapur, Afg'oniston, Mo'g'uliston, Vengriya, Malayziya, Germaniya, Marokash, Jazoir, Liviya va boshqa mamlakatlarda o'zbek raqs san'atining dovrug'ini taratdi. Ansambl qaysi mamlakatga borsa, shu yurt xalqining raqsini o'rganib, repertuarini boyitib qaytar edi...

O'sha suhbatdan keyin Mukarrama opa meni "Bahor" konsert zalining bir xonasiga boshladi. Bir uyum gazeta va jurnallarni ko'rsatdi. Ularda Mukarrama Turg'unboyeva va "Bahor" ansambli haqidagi maqolalar nashr etilgan edi. Turli tillarda yozilgan mana shu gazeta va jurnallar Mukarrama opa va u rahbarlik qilgan "Bahor" raqs ansamblining mahorati-yu, shuhratidan dalolat berib turibdi.

O'zbek milliy raqs san'atining malikasi, fidoysi bo'lgan Mukarrama Turg'unboyeva nisbatan qisqa, 65 yil umr ko'rdi. 1978-yilning 11-noyabrida ertalab osmon ochiq, quyosh chiqib turgan edi. Shu kuni atiqli san'atkor Mukarrama Turg'unboyeva vafot etgani haqida qayg'uli xabar tarqaldi. Peshinga yaqin Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik katta teatri oldidagi maydon san'atkorlar, san'atshunoslar, san'at muxlislari bilan gavjum bo'ldi. Ular xalqimizning suyukli, ardoqli san'atkori bilan vidolashish uchun kelgan edilar.

Chor-atrofga motam kuyi taralardi. Yaqindagina yaraqlab turgan osmonni qora bulut qopladi. Hash-pash deguncha, yomg'ir yog'a boshladi. Ammo bu maydonga to'planganlarga ta'sir qilmadi. Ular Mukarrama Turg'unboyeva bilan vidolashishda davom etdilar. Shunda ko'pchilik bir fikrni takrorladi: "Xalqimizning atiqli, sevimli san'atkori vafotidan osmon ham yig'lab yubordi".

Mukarrama Turg'unboyeva vafot etganiga 45 yildan oshdi. Shu yillar davomida xalqimiz M.Turg'unboyeva ijro etgan raqslarni sahna, teleekran hamda turli badiiy va hujjatli filmlarda ko'radi. U haqida shogirdlarining xotiralarida eshitadi. Opaning beqasam to'n kiyib, boshga ro'molni dol qo'yib ijro etgan "Tanovor" raqsini kim ko'rmagan?! Uni esdan chiqarib, unutib bo'ladimi? Aslo!

Xalqimiz asl farzandlarini unutmaydi. M.Turg'unboyevaga vafotidan keyin Prezidentimiz farmoniga binoan "Buyuk xizmatlari uchun" (2001-yilda) ordeni berilgani ham buning isbotidir.

San'atimiz, umuman, keng ma'nodagi madaniyatimiz jonkuyari, fidoysi bo'lgan Mukarrama Turg'unboyeva o'zini voyaga yetkazgan, ardoqlagan xalqiga nisbatan mehr-muhabbatini, qalbidagi ezgu tuyg'ularini raqslari orqali ifoda qildi, orzu-armonlarini, yurtimizga, xalqimizga bo'lgan tilak va istaklarini harakatlar va musiqa vositasida bayon etdi. Bu bilan ulug' san'atkor raqs san'atining qudratini, inson dilidagi ezgu niyatlarini so'zsiz ham ifodalash mumkin ekanligini amalda isbotladi.



Goh radioda, goho televizorda bo'lsin, O'zbekiston xalq artisti Ma'murjon To'xtasinov ijrosidagi qo'shiq yangrar ekan, albatta, uni yuz bor eshitsak ham ilk bora tinglayotganday jon qulog'imiz bilan tinglaymiz. Hofizning yangroq va tiniq ovozi hamda har bir nafasidagi nolaga monand tebrana boshlaymiz. Undagi ajib sehr qalbimizga yetib borib, nafaqat vujudimizda, balki jon tomirimizda sel kabi oqadi, so'z va soz sehriga mast bo'lamiz...

Farg'ona viloyati Oltiariq tumanining Yangiqo'rg'on qishlog'idagi hofiz yashagan uy oldida bizni xonadonning o'zi kabi oddiygina, sog'inch va hayot sinovlari o'z izini qoldirgan, mushtipargina **Qimmatxon To'xtasinova** ochiq chehra bilan kutib oldi.

Iboli, hayoli, kamtar, qadoq qo'llari bilan boshidagi ro'molini to'g'rilab, menga tik qarashga ham botinmay hayo qilayotgan, ma'sum nigohlarini qo'llariga qadagan qarshimdagi ayolning 56 yillik bosib o'tgan umr yo'li ham uning o'zbek ayoliga xos nafasotu nazokatini o'g'iray olmaganidan hayratim oshadi. Negadir o'z-o'zimdand uyalib ketaman, shu oddiygina, ammo barcha go'zal xislatlarni o'tirish-turishida, kiyinishida, nigohlarida, qo'yingki, jismu jonidayu, muomalasiga jo qila olgan ayolga tahsin aytgim keladi.

– **Eshitishimcha, Ma'murjon To'xtasinovning otasi hali u onasining qornidaligidayoq O'zbekiston xalq hofizi Ma'murjon Uzoqovdan tug'ilajak bolasi o'g'il bo'lsa, ismini Ma'murjon qo'yishga rozilik olgan, keyinchalik bir to'yda 3 yoshlik kichik Ma'murjonni qo'lidan yetaklab, hofiz oldiga olib borib, u kishidan: "Shu bola ulug' san'atkor bo'lsin", deya duosini olgan ekan. Shu haqda eshitganmisiz?**

– Ha, ko'p eshitganman. 1958-yilda qaynotam Toshkentda, pedagogika institutining nemis tili fakultetida o'qib yurgan kezlari ekan. O'sha paytda qaynona-qaynotamning ikki bolasi bo'lib, uchinchi farzandini kutayotgan ekanlar. Choyxonada Xalq hofizlari Ma'murjon Uzoqov va Jo'raxon Sultonov so'rida qo'shiq aytib o'tirishgan, mening bilishimcha. Qaynotam ularni tasodifan ko'rib qolib, choy tashib, xizmatlarini qilgan. Shunda ular qaynotamni duo qilganlar. O'sha paytda havas qilib, o'g'il ko'rsam, ismini Ma'murjon qo'yaman, deb niyat qilgan va niyatlariga yetgan...

Biz u kishi bilan bitta joyda, "Beklar" mahallasida tug'ilib o'sganmiz. U kishi mana shu uyda, biz esa to'rtta uy naridagi hovlida yashardik.

– **Unda bolaligingizdan birga o'ynab o'sganingiz uchun bir-biringizni yaxshi bilar ekansizlar-da?**

– Yo'q, to uyimizga sovchi bormagunicha ko'chamizda shunday yigit yashashini ham bilmaganman. Bo'lmasa uylarimiz bir-biriga shundoqqina ko'rinib turadi. Chunki u kishi tumanimiz markazidagi 1-sonli rus tiliga ixtisoslashtirilgan o'rta maktabda tahsil olgan. Men esa, qishlog'imizdagi 4-sonli maktabda o'qiganman. Endi o'ylasam, kichkinaligimizda har tong u kishi bu tomonga, men boshqa tomonga maktabga ketar ekanmiz. U paytlarda hamma, hatto maktab o'quvchilari ham sentabrdan to dekabrning oxirigacha paxta terishga ketardik. Qayinsinglim paxtada meni yoqtirib qolgan va ota-onasiga kelinlikka tavsiya qilgan ekan. 1983-yilda 10-sinfni tugatayotgan kunlarim edi. Iyun oyida uyimizga qaynotam sovchi bo'lib chiqqan. U paytlarda qizlarni erta turmushga berishardi. Yoshimiz orasidagi farq sakkiz yosh edi. O'shanda onam mening yonimga bir rasm olib kirib,

"manavi bola ekan, ko'rchi", degan. Bir ko'ribman, boshqa qaramabman ham. O'sha-o'sha chiroyli surati ko'z oldimda qolgan. Juda chiroyli yigit edi...

– **Rasmlarini ko'rib rozilik beraverdingizmi?**

– Yo'q, u paytlari qizdan rozilik so'ralmasdi, mendan ham so'rashmagan. U kishi ham qizning rasmini olib chiqinglar, degan ekan. O'shanda biz maktabda bitiruvchi o'quvchilar vinetka uchun rasmga tushgan edik. O'shani olib chiqib ko'rsatishsa, "bo'laveradi", debdi... Shu bilan to'yimiz bo'lib ketdi.



– **Ota-onangiz artistga qiz bermaymiz deyishmadimi?**

– Yo'q, u paytda artist emas edi-da. Qo'qondagi avtomobil yo'llari texnikumini tugatib, madaniyat uyida ishlagan, keyin harbiy xizmatga borib, Toshkentda Ikromjon Bo'ronov rahbarligidagi harbiy ansamblda Turg'un Beknazarov, Muhriddin Holiqov bilan birga 2 yil xizmat qilgan. San'atga qiziqishi ustunlik qilib, Toshkent madaniyat institutiga o'qishga kirib, 1-kursni tugatayotgan paytlari edi. Mana, shu hovlida to'yimiz bo'lgan. Taxtalardan o'rindiq qilinib, mehmonlarga joy qilingan, bir fayzli to'y bo'lgan.

– **To'ydan keyin haqiqiy oilaviy hayot boshlanadi. Bu xonadondagi turmush tarzi sizning oilangiznikiga o'xsharmidi?**

– Onam kolxozchi bo'lib, Farg'ona kanalini qazishda ishtirok etgan ayollardan. Otam dehqon edi. Bu oiladagilar esa aksincha, hammasi o'qimishli, ziyoli, madaniyatli odamlar bo'lib, faqat men o'qimagan edim. Qaynotam Salim

To'xtasinov maktabda nemis tilidan dars berardi. 40 yil shu sohada ishlaganlar. Qaynonam rahmatlik Nasibaxon aya uy bekasi bo'lsa ham to'n tikib, sotib, ro'zg'orga qarashar edi. Juda oqila ayol bo'lgani uchun shu kishiga o'xshasin deb, qizimga buvisining ismini qo'yganmiz. Qaynotam bolalaridan a'lo o'qishni qattiq talab qilar, qaynonam esa, ularning o'qishi, yumushlarini o'z vaqtida bajarishini nazorat qilar edilar. Oila davrasida doimo ilmiy suhbatlar, tortishuvlar, bahslar bo'lardi. Qaynotam meni institutda o'qitmoqchi ham bo'lgan. Ammo, ketma-ket farzandlarimiz tug'ilgach, vaqt topa olmadim...

– **Hofiz ko'pincha to'ylarda, el xizmatida yurishi tabiiy. Qo'shiqlariga raqqosalar o'ynaganida, ba'zida hamkasaba ayollar uyga qo'ng'iroq qilib, bezovta qilsa qanday holatga tushardingiz?**

– Jahlim chiqardi, albatta. Ammo ichimga yutardim. Ayniqsa, 1990-yilda "Yaxshilig" qo'shig'ini aytganidan keyin bezovta qiladigan ayollar soni ko'payib ketdi. Uyimizga qo'ng'iroq qilib, so'rayverishar edi, "chaqirib bering, tanishiman", deb. Ammo u kishi meni uyda yo'q denglar deya, biror marta ham go'shakni ko'tarmas edi. Bir kuni hatto taniqli shoira ayol Muyassar Otajonova qo'ng'iroq qilib, "Ma'murjon bormi?" - desa, "Nima qilasz?", debman. "Noto'g'ri tushundingiz, men shoiraman, she'rlarimni bermoqchiman", deganida xijolat bo'lganman. Uning ko'p she'rlaridan qo'shiqlar yaratgan.

– **Turmush o'rtog'ingizning o'zi ham ota-onasidan hayiqarmidi yoki erka o'g'ilmidi?**

– Qaynotam farzandlarini nazoratda ushlar, havolanib ketmasin, noto'g'ri yo'lga yurmasin der, juda aqlli odam edi. "Kelin, agar o'g'limning ichib yoki chekib kelganini sezsangiz, darrov menga ayting. Aytmasangiz sizdan xafa bo'laman", derdi.

– **Aytarmidingiz?**

– U kishining bunday yomon odatlari yo'q edi. O'zi ham, do'stlari ham juda yaxshi insonlar edi.

Qayinakam ikki farzandli bo'lganida avtohalokatga uchrab, olamdan o'tdi. Bu kishi ota-onasining yolg'iz suyanchig'i bo'lib qoldi. Balki, men kelin bo'lib tushgunimga qadar ko'p azob chekkan, taqdir sinovlariga uchraganligi tufaylidir. Bu kishi armiyadan kelgach, dekabr oyida

qo'shnimiz qarindoshinikiga to'yga olib ketgan, qaytishda quyuq tuman bo'lganligi uchun shofyor yo'lni ko'rolmay mashinani katta zovurga qarab haydagan, natijada qo'shnim va yana bir kishi olamdan o'tgan, ikki kishi uzoq davolanishdan keyin hayotga qaytishgan ekan. Shulardan biri Ma'murjon aka bo'lib, jarrohlik operatsiyasida oyog'ining ezilgan qismini kesib tashlagach, ikki-uch yilcha to'shakka mixlangan. Ammo, joni omon qolgan, o'ng oyog'i kalta bo'lib, oqsaydigan bo'lgan ekan.

– **Tuzalib ketgach, yana to'ylarga, el xizmatiga chiqib ketgan ekanlar-da?**

– Ha, shunda qaynotam agar qo'shiq aytmoqchi bo'lsang, avvalo, institutda o'qiysan, deb shart qo'ygan ekan. Shundan keyin o'qishga kirib, institutni tugatib kelgach, Oltiariq madaniyat uyida badiiy rahbar, musiqa maktabida o'qituvchi bo'lib ishlab, 1997-yildan "O'zbeknavo" birlashmasining Farg'ona viloyat bo'limida yakkaxon xonanda sifatida faoliyat yurita boshladi. Qayerda ishlamasin, bir zum ijoddan to'xtamasdi. Mumtoz ashulalarni farg'onacha ijro uslubida kuylaganida odamlar butun vujudi bilan tinglardi. Bundan tashqari, "Layli va Majnun", "Shahzoda va Malika", "Kecha va kunduz", "Bobur" videofilmlarida kuylagan mumtoz qo'shiqlari betakror musiqiy asarlardir. Ma'murjon aka mehnatining samarasi sifatida 1998-yilda Xalqaro Bobur mukofoti sovrindori bo'ldi.

– **Xonandaning "Yaxshilig" qo'shig'ining o'zi mukammal ijro. U yaratilganiga 30 yildan oshgan bo'lsa ham hamon qo'shiq ixlosmandlarining sevimli durdonasi hisoblanadi. Uning yaratilish tarixidan xabaringiz bormi?**

– Fattoh ismli aka Ma'murjon akamni "Yoshlar kuylaganda" konsert dasturiga taklif qilgan ekan-u videofilmga mos ovoz egalarini saralab yurgan rejissyor Maqsud Yunusovga "Bugun Oltiariqdan bir yigit keladi, eshitib ko'ring-chi, sizga ma'qul bo'lar", debdi. Rejissyorga haqiqatdan ham Ma'murjon akaning qo'shiqlari va ovozi yoqibdi, kuyga solib, tayyorlab kelishi uchun o'nga yaqin she'r berib yuboribdi. U kishi o'sha she'rlarni uyda o'tirib, qo'shiq holatiga keltirdilar. O'ziga ma'qul bo'ladigan darajaga yetgach, avvalo, dadamga aytib berdi. Ular bilan birga biz ham eshitganmiz. Qaynotamning qulog'iga yoqqach, oq fotihasini olib, ovoz lentasiga yozdirish uchun Toshkentga



Buni umr derlar...



ketdi. Shu asnoda “Yaxshilig” qo’shig’i paydo bo’ldi.

– **Hofizning nafaqat “Yaxshilig”, balki “Buni umr derlar”, “Nima qoldi” kabi ko’plab qo’shiqlari juda mashhur. Bunday qo’shiqlarni yaratish o’ziga yoqarmidi yoki muxlislari talab qilarmidi?**

– U kishi uncha-muncha she’rni qo’shiq qilishga shoshmas edi. Ko’p kitob o’qir, ular orasida romanlar, qissalar, she’riy asarlar bo’lardi. Shular ichida o’ziga yoqadigan she’r chiqib qolsa, olib qo’yar, vaqti kelganida kuyga solardi. Umrboqiy mavzularni, do’stlik, insoniylik, mehr-oqibat, sadoqat haqidagi she’rlarni yaxshi ko’rardi. Hech qachon to’yboq qo’shiqlar, obro’ keltirish uchun ashula aytmas edi, yangi qo’shiqlari o’z-o’zidan odamlarning ko’ngliga yoqardi shekilli, ommalashib ketardi.

– **Og’ir kunlarida do’stlari ham xabar olib turishdimi?**

– Hayotning har bir tashvishi sinov deganlaridek, o’shanda men Ma’murjon akening sadoqatli, mehr-oqibatli do’stlari borligiga guvoh bo’lganman. Do’stlari yonidan ketishmadi desam, mubolag’a bo’lar-ku, ammo yolg’izlatib qo’yishmadi. O’sha paytlari uyimizdan do’stlaridan tashqari mahalla-ko’y, tanish-bilish, qo’ni-qo’shning oyog’i uzilmadi. Shu oqibatli odamlar yashash uchun kurashga kuch berardi, nazarimda. Nima qattiq desa, tosh qattiq, toshdan ham bosh qattiq, deyishgani kabi, jismoniy og’riqlarni sabr bilan yengib, bir yildan keyin oyoqqa tura boshladi, ikki yil o’tgach, 2000-yilda

mukofot, hayotidagi og’ir kunlardan keyingi ruhiy qo’llab-quvvatlash, katta olqish, qora bulutdan keyin charaqlab chiqqan quyosh kabi edi.

– **Ma’murjon To’xtasinov hofiz bo’lmaganida kim bo’lardi, deb o’ylaysiz?**

– Agar qo’shiqchi bo’lmasa, shifokor bo’lardi. Chunki juda ko’p eshitganman: “shifokorlik juda yaxshi kasb-da”, deganini. Balki shifokorlarning beminnat xizmatlari tufayli sog’ligi tiklanganligi uchundir. Balki bu kasb egalarining odamlarga ko’proq nafi tekkanligi sabablidir.

– **Hofizning oila kam-ko’stiga qarashga vaqti bo’larmidi?**

– Oilada hech qachon xarajat muammo bo’lmagan. “Uyda nima kamchilik”, deb so’rardi. “Biror narsa kam bo’lsa, men xotirjam yurolmayman”, - deb xarajatlarni bir-ikki oyga yetadigan qilib qo’yar edi. Men xarajat uchun bozorga chiqib ko’rmaganman. Hozir ham shu xislatini o’g’illarimga ibrat qilib ko’rsataman.

– **Bolalarning muammolari bilan kim shug’ullanardi? Deylik bog’chasi, maktabi deganday.**

– Bolalarning hammasi gimnaziyada o’qigan. Har birining sinf yig’ilishigacha Ma’murjon akam borardi. Farzandlarga juda mehribon, xuddi yaqin do’sti kabi gaplashardi. Ularga qattiq gapirganini eslay olmayman.

– **Hayotingizning alohida quvonchli kunlarida, yaxshi kunlarda sizlarga qanday sovg’alar berishni yaxshi**



“Turkiston” san’at saroyida konsert berdi.

– **Quvonchu iztirobga, hayotga, muhabbatga to’la konsert deng... Siz ham konsertga bordingizmi?**

– Yo’q, o’shanda “sizlar borsangizlar xayolim buziladi”, deb bizlarni olib ketmagan. U kishining bir og’iz so’zi biz uchun tillolardan a’lo bo’lib, ko’nglimiz shukronaga to’la, hali tamoman tuzalmagan bo’lsa ham sahnaga, umuman hayotga qaytganidan xursand edik... Biz televizorda tomosha qildik. Konsertga judayam ko’p muxlis kelgan ekan. O’sha yili O’zbekiston xalq artisti unvoniga sazovor bo’ldi. Bu e’tirof hofiz uchun nafaqat

ko’rardi?

– Ko’pincha bolalarga o’yinchoqlar, katta mashinalar, qizlarga qo’g’irchoq olib kelar edi. Bir bolaning tug’ilgan kuni bo’lsa, xafa bo’lishmasin deb hammasiga sovg’a ulashardi. Bolalarga sovg’a qilgan mashinalari haligacha uyimizda turibdi.

– **Hofiz mahalla-ko’y, qo’ni-qo’shnilarning to’ylarida xizmat qilgan bo’lishi tabiiy. Oltiariqda xonandalar o’zi yashaydigan tuman ahli to’y qilsa, ulardan xizmat haqi so’ramas ekan. Bu odatga qanday qarardi?**

– Tumandoshlarimizdan xizmat haqi olmasdi. Nochorroq oilalar bo’lsa, odamlar



qistirgan pullarini ham uy egasiga tashlab kelardi. Saxovatni yaxshi ko’rar edi. Bularni ham biz odamlarning uni duo qilib, xursand bo’lib gapirganlaridan bilardik. Bunaqa narsalarni aytib bo’lmaydi, gapirsa xayri ham qolmaydi aslida.

– **Bugun ustoz san’atkorning farzandlari ham ulg’ayishgan. Ular orasida otasining izidan borayotganlari ham bormi?**

– Katta qizimiz Adolat kulolchilar oilasiga kelin bo’lib tushgani uchunmi, kulol. Qolgan farzandlalarimizning hammasi san’at sohasida ishlashadi. O’g’illarimiz oliy ma’lumotli: Umidjon 14-sonli bolalar musiqa va san’at maktabida musiqa o’qituvchisi, Uyg’unjon shu maktabda direktor o’rinbosari, O’tkirbek Farg’ona san’at kollejida musiqa o’qituvchisi bo’lish bilan birga, aka-singillari bilan musiqa va san’at maktabida ham ishlaydi. Ularning ovozlari ham, san’atga qiziqishlari ham, hatto xarakterlari ham otasiga o’xshaydi. Kichkina qizim Nasibaxon ham akalari bilan birga ishlaydi, u o’quvchilarga dutor chalish sirlarini o’rgatadi. O’g’illarim el xizmatida, otasining qo’shiqlarini aytishadi, o’zlari yangi qo’shiqlar yaratishadi. Ovozlari tiniq va jarangdor. 14 nafar nevaralarimiz orasida san’atga qiziqadiganlari ham borligidan quvonaman. Uyg’unjonning o’g’liga, elda aziz inson bo’lsin, degan yaxshi niyat bilan bobosining ismini qo’ygannimiz.

– Umidjon To’xtasinov “Bekligimni ko’rmagan otam” qo’shig’ini:

*Erkalanib chin suyolmadim,
Ko’zingizga termulolmadim,
Zarchoponlar olib berolmadim,
Peshonamga sig’magan otam,
Bekligimni ko’rmagan otam –
deya dard bilan kuylagan...*

– Bu aslida Sayyora To’ychiyevaning she’ri bo’lib, qaynonam olamdan o’tganlaridan keyin ancha vaqt o’tib, Ma’murjon aka kuylagan “Bekligimni ko’rmagan onam” qo’shig’idir. Otasi vafot etganida Umidjon uylanib, endigina qizchalik bo’lgan payti edi. Hali bunday ayriqliqqa tayyor emas edi. Uning sog’inchi dunyolarga sig’madi shekilli, juda o’rtandi. “Onajon, dadamning shu qo’shig’ini otamga bag’ishlab aytay”, dedi. Ruxsat berdim. Shoyad hamma dardi shu qo’shiqdagi nolasi bilan chiqib ketib, biroz yengillashsa, dedim...

– **Turmush o’rtog’ingizning qaysi qo’shig’ini yaxshi ko’rib tinglaysiz?**

– Hammasini yaxshi ko’raman, ammo “Buni umr derlar” qo’shig’ini boshqacha mehr bilan tinglayman...

*Kimdur eshik ochar, kimlardur yopar,
Kimdur malham bo’lar, kimlardur qopar,
Kimdur sokin daryo, kimlardur chopar,
Buni umr derlar kunduzli, tunli,
Buni umr derlar, shodlik, qayg’uli...*

Negadir shu qo’shiq menga madad berayotgandek, ikkalamizning hayotimiz haqida so’zlayotganday, oramizdagi uzilmas rishtaga o’xshaydi... Hofiz ruhan biz bilan birgadek tuyulaveradi, hamisha ko’nglimda, yonimda yurgandek...

– **Xalq sevgan hofiz Ma’murjon To’xtasinov bilan o’tgan umringizning turli sahifalari haqida gapirsangiz. Ya’ni, har birimizning hayotimizda bo’ladigan oq va qora ranglar xususida.**

– Yorqin ranglar – Ma’murjon akening jismidan dard biroz chekingan, u oyoqqa turgan kunlar quvonchini hech narsa bilan baholay olmayman. O’sha kunlari men yashamadim – go’yo osmonlarda uchib yurar edim. Qora ranglar... 2010-yilda oyoqlari og’rib yurganida kutilmaganda shifokorning Ma’murjon akening jigaridagi davosiz dard haqidagi qo’rqinchli tashxisi va oradan olti oy o’tgach sodir bo’lgan dahshatli voqea bilan bog’liq...

Ha, odamlarning mehru muhabbatiga, hurmatu ehtiromiga sazovor bo’lgan xalq sevgan hofiz bugun oramizda yo’q. Ammo u o’zining yuz bora eshitsang ham yana tinglaging kelaveradigan, shirali ovozi bilan muxlislarini sehirlab qo’yadigan, har gal eshitganingda ruhiyatingni san’atning bepoyon kengliklariga olib ketadigan o’lmas qo’shiqlari bilan har bir muxlisining ko’ngil uyida abadiy yashayveradi. Insonlarni ezgulikka, yaxshilikka chorlovchi, o’zidan yaxshi nom qoldirishga undovchi qo’shiqlari esa, har bir o’zbek xonadonida, har kuni yangrayveradi:

*Ortingda qani, o’yla-chi bir on –
nima qoldi?*

*Armon qoldimi, qoldimi to’fon,
nima qoldi?*

*Inson bolasi olgay nafas orzu-havas-la,
Shodlik qoldimi, qoldimi pushmon –
nima qoldi?*

*Inson hayoti yonib o’char nurga barobar,
Nur qoldimu sendan zimiston,
nima qoldi?...*

Hofizning ortida qalbi san’atga oshufta oqil va oqila farzandlari, muxlislari har kuni sevib tinglaydigan abadiylikka daxldor durdonalari – san’ati bilan qorishgan nur qoldi!

“Ijodiy parvoz” gazetasi uchun maxsus
Saodat MATYOQUB qizi
suhbatlashdi



NIZOMIDDIN ESHMURODOV,
SIRTQI TA'LIM SHAKLI
"MADANIYAT VA SAN'AT
MUASSASALARINI TASHKIL ETISH
HAMDA BOSHQARISH" YO'NALISHI
3-BOSQICH TALABASI



NARGIZA SHODMONOVA,
"MADANIYAT VA SAN'AT
MUASSASALARINI TASHKIL ETISH
HAMDA BOSHQARISH" TA'LIM
YO'NALISHI 2-BOSQICH TALABASI



MALIKA NABIEYVA,
"MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARINI
TASHKIL ETISH HAMDA BOSHQARISH"
TA'LIM YO'NALISHI 2-BOSQICH TALABASI

Taqdir hukmi

Bezovta ruh bilan seni kuzatib,
Har kuni yo'l qarab, xayolga cho'ndim,
Nahot, men umrimning go'zal faslida,
Sevgimni yurakning chetiga ko'mdim.

Yo'qlab borolmadim ortingdan, hatto,
Unsiz xayollarim cho'zildi yillab,
Yoningga chorlading tushimga kirib,
Olisdan sog'inchli maktublar yo'llab.

Ko'nglimda isyonlar ortdi tobora,
Armonlar ko'ksimga soldi hayajon,
Men cheksiz titroqlar ichra na chora,
Na imkon qidirib topa olgan jon.

Bag'rimni kuydirdi ishqning olovi,
Millionlab xatoga o'qildi hukm,
Mudom so'z axtarib mening qismatim,
Dilni so'z aytmoqqa ayladi mahkum.

Shundan so'ng halovat yo'qoldi dilda,
Sensizlik domiga tortdi beayov,
Hijron har daqiqa tutdi so'roqqa,
Quchganim so'z bo'ldi, kechganim olov.

Ammo, nolimadim, chekmadim faryod,
Shu shirin azobga bosh urdim mag'rur.
Umidim umrimga baxsh etar hayot,
Gar taqdir hukmidan topolsam huzur.

Ona

Shirin so'zim, mehri osmonim,
Mushtiparim, dardi pinhonim.
Har on sodiq yolg'iz insonim,
Sizdan aziz kimim bor ona?

Do'stim ortdan tig' urishga shay,
Yor deganim dil g'ashlar atay.
Bag'ringizga bosh qo'yib yotay,
Sizdan aziz kimim bor ona?

Suyganlarim dilga otdi o'q,
Har on sizdan bo'ldi ko'nglim to'q.
Anglab yetdim, onaday do'st yo'q,
Sizdan aziz kimim bor ona?

Yomonlikni bilmaganim siz,
Bir ko'ksimni tilmaganim siz.
Hech kimdan kam qilmaganim siz,
Sizdan aziz kimim bor ona?



Xulosa

Hayotdan mazmunni izlamay qo'ydim,
Yomondan yaxshini farqlashdan to'ydim.
Foydasiz so'zlarni tinglamayman bas,
Qalbmni o'yinchoq qilish shart emas.

Jim turib, qalbmni qiynayman faqat,
Xiyonatlar ko'rib yig'layman ofat.
Sog'inib yoshligim qo'msayman faqat,
Orzu qilmayman, orzuyim sarhad.

Barcha xatolarni ko'nglimdan uzdim,
Maqsadlarim bilan bir o'zim qolib.
Yomon xotirani yodimdan uzib,
Bugun ketayapman sizga baxt tilab.

BEHRUZ O'TKIRQULOV,
"MADANIYAT VA SAN'AT
MUASSASALARINI TASHKIL ETISH
HAMDA BOSHQARISH" TA'LIM
YO'NALISHI 2-BOSQICH TALABASI



Qoldirmasang bo'ldi qizil chiroqda

Ba'zan qoidaga bo'ysunmas tuyg'u,
Seni telbalarcha sevganim bor gap,
Xayolim kezadi ko'ngil ko'changda,
Sen esa, o'xshaysan svetafora.

Barcha harakatim senga bog'liqday,
Goho "qizildaman", goho "yashilda",
Ba'zan taqiqlarga e'tibor qilmay,
Ko'nglimdan ko'nglingga sevgi tashildi.

Sen gohi istaysan ishqdan tonmog'im,
Men esa, istayman "yashil" yonmog'in,
Yurakni qoldirib bir kun firoqda,
Qoldirmasang bo'ldi qizil chiroqda.



Jyul Vernning ushbu asarini tezlikda o'qib tugatishimning asl sababi boshida fan yuzasidan majburiyat edi. Bir kun ichida asarni tugatar ekanman, ruhiyatimda shukronalik hissi sezilarli darajada kuchaydi.

“O’n besh yoshli kapitan” asari haqida



**MARDONA PARDABOYEVA,
“KUTUBXONA-AXBOROT FAOLIYATI
FAKULTETI” 3-BOSQICH TALABASI**

Bevosita asar tahliliga to'xtalsam, “O’n besh yoshli kapitan” asari nafaqat o’smir yoshlar uchun balki, kattalar uchun ham anchagina hayotdan saboq bera oladi degan fikrdaman. Negaki unda, Jyul Vern bolalarning hayotot olamini rivojlantirishga, tabiatni sevishga, borliqni anglashiga bo’lgan qiziqishlarini kuchaytiribgina qolmay, insonlar o’rtasidagi mehr-oqibat, jasorat, mas’uliyat hamda bir qator qabih kimsalar hayotidan ham so’z yuritadi. Insoniyat olamining razolatga botgan holatlari haqida nihoyatda ta’sirli manzaralar yoritgan. “Piligrim” kemasining sarguzashtlari esa, o’sha davrning joriy holatidan hikoya qiladi.

Asar qahramonlari: kichik kapitan Dik Send, kapitan Gul, miss Ueldon, kichikintoy Jek, Tom, Gerkules, Okteon, Bat, Ostin, Benedikt, Negoro, Gerri Samuel Vegasning Dingo laqabli iti va boshqalar.

“Piligrim” kit ovlash kemasining tajribali kapitani Gulning xarakteridan ibrat olarli tomonlari bor nazarimda. Xususan, jamoaga rahbarlik qilishning o’zi anchagina murakkab ish. Ko’p yillik tajribaga ega bo’lgan kapitan Gulning yutug’i shu ediki, uning hamisha yonida bo’ladigan zahiradagi shogirdi born edi. Aynan mana shu ishning nechog’lik ahamiyatli ekanini voqealar ketma-ketligi isbotladi. Qarangki, birgina kema kapitanining shogirdi bor, bugungi kundagi ba’zi rahbarlar “joyini berib qo’yishdan” qo’rqib yoshlarni chetlatish bilan ovora. Ha mayli, asarga qaytadigan bo’lsam, kapitanning ichki kechinmalari vaziyat qanchalik og’ir bo’lmasin metin irodali shaxs bo’lishni hayotning o’zi taqazo etishidan darak beradi. O’z sohasining bilimli, mulohazali va rahbarlarga xos xarakter egasi edi. So’nggi damgacha jamoa a’zolari uchun kurashish bu chinakam fidoyilikdir. Men uchun kapitan Gul fidoyilik timsoli bo’lib qoldi.

Miss Ueldon esa nihoyatda zehni,

vaziyatni to’g’ri baholay oladigan va o’z navbatida ayollik xarakteriga ega ona edi. E’tiborimni tortgan jihati shuki, kichikintoy Jekka tarbiya-ilm berar ekan, o’ziga yarasha kreativ usullardan foydalanar ekan. Masalan: harf va raqamlarni o’rgatish jarayonida kubiklardan so’z yasab, keyin Jekning o’zi shu harflarni topib yasashiga, raqamlarni ketma-ket qo’yishiga erishadi. Bu ham ilm berishning oddiygina, biz bugun hatto foydalanmayotgan usullaridan biridir. Shunday emasmi? Kemada yuz beradigan keskin vaziyatlarda ham nihoyatda bosiqlik bilan “O’n besh yoshli kapitan”ga qimmatli maslahatlar beradi. Bu esa, bugungi kun ayollariga, menga ham qaysidur ma’noda dars bo’ldi. Miss Ueldon men uchun mushkul vaziyatlarda yo’l ko’rsatuvchi “kompas” timsoli bo’lib qoldi.

O’n besh yoshida kapitan bo’lishga erishgan Dik Send obrazida o’smirlar uchun o’rnak bo’ladigan jihatlari juda ko’p. Bolaligidan yetimlikda ulg’aygan bosh qahramonning hayotdan dars olish davri anchagina erta boshlanadi. Shunday bo’lishiga qaramay, tanlagan yo’lidan qaytmaydigan, chidamli, ilmni sinchikovlik bilan o’rganadigan, qo’rqmas, yosh bo’lishiga qaramay teran fikrli va o’ta kuzatuvchan bo’lib ulg’ayadi. 15 yoshli boladagi mas’uliyatni bajarish hissi bugungi kundagi biz kabi yoshlar uchun namuna bo’la olar ekan. Kapitan Gulning bildirgan ishonchini oqlash uchun o’z jonini kam qiynamaydi. O’z otasiday bo’lib qolgan kapitanning vafotidan keyin vaziyatni tezda o’nglashga kirishishi, jamoadagi ahillikni saqlab qolishi va kelishi mumkin bo’lgan xavf-xatarga ham tayyorgarlik ko’rib qo’yishi meni tom ma’noda hayron qoldirdi. Kema shturvalini qo’liga olar ekan, yelkasidagi mas’uliyat qanchalik katta ekanini juda yaxshi anglab turar edi. Qolaversa, maktabga borgan vaqtidayoq “Nima uchun oliy matematika darsi o’tilmaydi?” - degan savol uni qiynaydi. Bu esa, o’smirning borliqni anglashga bo’lgan intilishidan dalolatdir. Afrikada boshidan kechirgan voqealar rivojini kuzatar ekanman, yozuvchining mahoratiga tan berdim. Birgina asarning o’zida bir qator ilmiy faktlarni ham keltirib o’tadi. Bundan ko’rinib turibdiki, chinakam yozuvchi barhayot asar yaratish uchun kuzatishi, o’rganishi va chuqur tahlil qilishi nihoyatda zarur ekan. Jyul Vernning barcha asarlarida insonlarning tabiatni sevishi, o’rab turgan borliqni o’rganishga urinishi va butun boshli xalqning qullik qilishini qoralashi qolaversa, yaratilishi kerak bo’lgan kashfiyotlarning taraqqiy etishiga o’z ta’sirini o’tkazmay qolmaydi. O’smir yoshidagi bolalarning ushbu asarni o’qib chuqur tahlil qilishi, ulardagi jismoniy va ruhiy holatlarini yaxshi tomonga o’zgarishiga olib keladi. Bosh qahramonni mana shu darajaga yetkazgan, o’n besh yoshida kapitanlikka olib chiqqan narsa nima edi? Hunar edi, dengizchilik, matroslik hunari edi. Demak, bu asar



insonlarni ma’lum bir yo’nalishda bilimlarni takomillashtirib borishga chaqirmoqda. Ya’ni bo’sh vaqtda hech bo’lmasa shogird tushish ham anchagina hayot maktabida as qotishiga ishora qilmoqda. Dik Send esa men uchun jasorat va matonat tomsoli bo’lib qoldi.

Men nihoyatda qiziqqan yana bir obraz bu Benedikt edi. Hasharotlarning muxlisi edi. Afrikaning subtropik o’rmonlarini keza turib “eh, botanikani nimaga o’rganmadim?”- deya attang qilgan chinakam tabiatning muxlisi sifatida xotiramdan joy oldi. O’z kolleksiyasi uchun tinimsiz izlangan, har qanday vaziyatda hayotidagi asl mazmunidan voz kechmagan bu qahramon men uchun “Tabiat fidoyisi”, “Hasharotlar muxlisi” sifatidagi xulosamga sabab bo’ldi.

Alohida tilga olishga arziydigan yana bir obraz bu Samuel Vegasning Dingo laqabli iti. Bolalar adabiyoti fanini o’rganib, asarlarni ketma-ket o’qib borish jarayonida shuni angladimki, inson va tabiat o’rtasidagi samimiy munosabat, bizni o’rab turgan borliqqa nisbatan hamda unda yashayotgan hayvonot olamiga mehr-shavqat bilan munosabatda bo’lish, qalbimizda ezgulik-u yaxshilikning avj olishiga xizmat qiladi.

Jyul Vern mana shu obraz orqali, insoniyat va hayvonot olamidagi ajib bir hissiyotni yoritib beradi. Yanikim, hayvonga sobiq egasi mehr berganki, Dingo uni hamon qadrlamoqda. Salbiy obraz sifatida asarda uchragan Negoro esa Dingoning hayotida yovuz shaxs sifatida qolib ketgan. Demak, hayvonlar ham ezgulik va yovuzlikning, yaxshilik hamda yomonlikning farqiga bizlardan yaxshi borsa ajab emas...

Negoro! Boylikka o’ch, yolg’onchi, razil kishilarda edi. Hech ikkilanmay boylik sabab insonlarni qullikka sotish uchun, ortidan mo’may daromad orttirish uchun insoniylik chegarasidan chiqishi kerak. Hatto bo’rilar ham o’z qavmini hech qachon sotmas ekan (Maugli asari taassurotlaridan). Ongsiz mavjudotdagi hissiyot insonlar orasida uchramasa?! Bu nima degan gap? Afsuski, Negoro, Antonio Alvuz, Xarris, Gerri kabi shaxslar oramizda bugun ham bor.

Bir qaraganda “O’n besh yoshli kapitan” asari orqali yozuvchi insonlarning tabiati va ularning shaxsi orqali “tahbeh” yoki “rag’bat” berayotgandek tuyuladi. Ammo, chuqurroq tahlil qiladigan bo’lsak, millat va uning aholisini qullikdan ozod etishga, erkini qaytarishga chorlovchi bosh g’oyani ham tahlil etish mumkin. 1878-yilda yaratilgan XIX asrning noyob fransuz durdonalaridan sanalmish, bu asarda insonlarning dengizdagi hayoti, izlanishlari, qaysidur ma’noda salohiyatidan yuz bergan ba’zi xatolardan so’zlaydi. Jyul Vernning asarlari janrlari ilmiy-fantastik va sarguzasht asarlar sirasiga kirgani uchun ham bolalar-u o’smirlar uchun qiziqarli va juda foydalidir.

Suv osti kemasi kashf etilmagan vaqtda “Kapitan Nemo”ning kemasi haqida asar yaratgan edi. Fransuz yozuvchisining asarlari

hamisha noodatiy olamlar haqida so’zlaydi. Qahramonlar goh fazolar uzra kezsa, gohida yerningyagrosigachatushardi. Bolalarnitabiat bilan bog’lash va uning sir-u sinoatlaridan bahramand bo’lishga jumladan: geografiya, asranomiy, botanika, matematika fanlarini o’zlashtirishga qiziqtiradi. Men o’qigan “O’n besh yoshli kapitan” asarida ham ko’pgina ilmiy faktlar keltirib o’tilgan. Afrika va Amerika o’lkalarining o’ziga xos ob-havosidan tortib o’simlik dunyosigacha, kit ovchilarining turmush tarzidan tortib, katta va kichik kitlar haqidagi faktlargacha, hayvonlar sinfini ajratishdan tortib, o’lkalarga sayohat qilgan sayohatchilarning ta’riflarigacha to’xtalib o’tilgan ekan.

Badiiy asarlar ayniqsa, sarguzasht asarlarda bu kabi faktlardan foydalanish yozuvchining yuksak mahoratidan darak beradi. Kitobxon “O’n besh yoshli kapitanni” mutolaa qilar ekan, voqealar rivojida qahramonning obraziga kirib qolganini sezmaydi. Okeanning atmosferasidan g’oyibona bahramand bo’ladi. Dik Send bilan birgalikda kapitanlikni o’z qo’liga olsa, mushkul vaziyatlarda qahramonga hamdardlik ko’rsatsa ajab emas. Jyul Vernning ushbu asarini bir kun ichida o’qib tugatishimning asosiy maqsadi mazmunini shunchaki bilib olish bo’lgan bo’lsa, xulosalash jarayonida o’z hayot maktabim uchun anchagina bilim va tajriba to’plab oldim. Voqealar rivojini kuzatib borar ekansiz, bevosita o’sha muhitda yashashning qiyinchiliklarini his etasan kishi.

Bugungi turmushimizda ham bu kabi qiyinchiliklarning ba’zi turlarini uchratish mumkin. “O’n besh yoshli kapitan”, “Changalzorlar kitobi”, “Besh bolali yigitcha”, “Shum bola”, “Dunyoning ishlari” singari asarlar o’tgan davrlardan ro’y-rost so’zlash bilan birga, kishilarning ruhiyatiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi. Endilikda Jyul Vernning boshqa asarlarini ham bo’sh vaqtimda o’qib chiqishga qaror qildim. Yozuvchining geografiya, botanika fanlariga oid ilmiy asarlari ham borligidan xabar topishim, asarga va yozuvchiga yanayam jiddiyoq yondashishimga sabab bo’ldi.

Inson hayoti davomida harchand urinmasin, baribir to’siqlarga duch keladi. Baribir muammo chiqadiku deb, ilm olishdan chekinmaslik kerak. Negaki, egallanayotgan foydali bilimlarimiz bir kun kelib yo hayot maktabimizda, yo karyeramizda albatta o’z natijasini ko’rsatadi. Men ham shu vaqtgacha bolalar uchun yaratilgan asarlarga unchalik ham e’tibor qaratmas edim. Endi esa, shuni angladimki, bu asarlar nafaqat bolalarni balki, insoniyatning ruhiy olamini, qalbini va tafakkurini ham tarbiya topishiga, oddiygina shirin so’z-u, hamdardlikning qiymatini anglashiga ham ko’mak berar ekan. Jamiyat taraqqiy etgani sayin, insonlar orasidagi ijtimoiy muammolar ham o’z navbatida taraqqiy etib boradi. O’z fe’limizdagi kichik xatolarni tuzatish orqali biz jamiyatga o’zimizning ijobiy atmosferamizni tarqatamiz.

Tafakkur qiling!

✓ **Miyasi mayda-chuyda orzularga to’la odamlar bilan uzoq suhbat qurmang. Ular sizning katta orzu-maqsadlaringizni cho’ktiradi.**

✓ **Hayotdan alamzada va norozi insonlar bilan muloqot qilmang. Undaylar sizning hayotga bo’lgan qiziqishingizni, umidingizni so’ndiradi.**

✓ **Juda ham ehtiyotkor va qo’rqoqlarni fikrlariga quloq solmang. Ular tufayli tavakkalga qo’l urolmaysiz.**

✓ **Dangasa, ishyoqmaslar bilan do’stlashmang. Aks holda sizning miyangiz ham ularnikiga o’xshab hayotda o’sish uchun imkoniyatlar emas, ko’proq uxlash uchun sabablar izlay boshlaydi.**

✓ **Katta orzular qiling, maqsadlar qo’ying. Unga yetish rejasini tuzing va bu yo’lda siz bilan yelkama-elka muammolaringizni hal qiluvchi, quvonchingizga sherik bo’luvchi do’stlar orttiring!**



Ko'rgazma

HASAN ABDUNAZAROV



Tasviriy san'at galereyasida taniqli rassom Umar Rajabovning "Tafakkur" nomli ko'rgazmasi tashkil etildi. Namoyish qilish uchun taqdim qilingan o'z yo'nalishiga ega ijod namunalari yurtimizning ko'hna tarixiy obidalari, arxitektura manzaralari,

oddiy insonlarning maishiy hayoti, tariximizdagi dolzarb muammolarga o'z fikrini bildirgan.

Ekspozitsiyada uning fikrlashga chorlovchi "Yo'qotilgan bolalik", "Bugungi tarix", "Evolyusiya", "Temir shahar", "Qumsash",

"Muqaddima", "Yo'qotilgan g'alabalar", "Ilk qadam", "Taxt", "Bomdod" va boshqa ijod namunalari o'rin olgan.

Rassom 1985-yil Xorazm viloyatida tug'ilgan Kamoliddin Bexzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida o'qigan.

Voqeiyy hikoya

Ehson

Bolalar ota-onasining ortida juft-juft bo'lib qo'l ushlab turar va o'zlarini juda yaxshi tutardi. Ular o'zlari ko'rishga mushtiq masxarabozlar, hayvonlar, umuman, o'sha kechqurungi bo'lajak tomosha haqida o'zaro xursand bo'lib chug'urlashardi. Hayajoni kuchli ekanidan, bolalar avval hech qachon sirkka tushmaganlari bilinardi. Bu ularning hayotidagi eng qiziqarli voqea edi. Ota va ona safning boshida g'urur bilan turishardi. Ona erining qo'lini mahkam tutib, "Sen mening hamma narsaga qodir ritsarimsan!" deyotgandek edi go'yo. Ota ham oilasi baxtidan shodon va masrur edi.

Odri XEPBYORN,
kinoaktrisa

Kassir otadan ularga nechta chipta kerakligini so'radi. U ishonch bilan:

– Bolalarga sakkizta va kattalarga ikkita chipta olmoqchiman, – dedi.

Sotuvchi chipta narxini aytdi.

Xotini erining qo'lini qo'yib yuborib, boshi g'amgin egildi, erning esa lablari titrardi. Keyin biroz egildi va kassa yoniga yaqinroq kelib:

– Chipta narxini qancha dedingiz? – deb so'radi.

Kassir narxni yana takrorladi. Bu odamning buncha puli yo'q edi. Hayotida ilk bora sirkka kirish xursandchiligidan y eru ko'kka sig'mayotgan bolalari tomon burilib, tomoshaga kirish uchun pulim yetmaydi, deb qanday aytadi?

Voqeani ko'rib, his etgan otam cho'ntagiga qo'l tiqib, 20 dollarlik pulni yerga tashlab yubordi (holbuki, biz ham boy

yashamasdik, tirikchilimiz zo'rg'a o'tardi). Otam 20 dollarlik kupyurani yerdan oldi va nochor qolgan otaning yelkasiga sekin qoqib:

– Kechirasiz, ser, mana, bu pul cho'ntagingizdan tushib qoldi... – dedi.

Kichkintoylarning otasi gap nimadaligini tushundi. U hech kimdan sadaqa so'ramoqchi emas edi. Ammo, inson qalbini o'rtab yuboradigan, noilojlik va noqulay vaziyatdagi yordamning qadrini yurak-yurakdan his qilgan edi. U otamning ko'ziga tik qarab, ikki qo'li bilan uning qo'llarini mahkam siqib, lablari titrab, ko'zida yosh bilan:

– Rahmat, rahmat, ser. Bu ishingiz men va oilam uchun juda katta ahamiyatga ega, – dedi...

Otam bilan uyga qaytdik. O'sha 20 dollarga biz ham bilek sotib olmoqchi

edik. O'sha oqshom sirk ko'rmagan bo'lsak ham, ichimizdagi quvonchimiz sirk tomoshasining xursandchiligidan kuchliroq edi. Bu shodlikni hech qachon biror-bir tomosha bera olmasdi... Men o'sha kuni ilojisiz, nochor ahvolda qolgan insonning mushkulini oson qilish qanchalik qadrlil ekanini anglab yetdim. "Berish" qadriyatini his etdim! Va yana bir narsani anglab oldim: "Bergan qo'l olgan qo'ldan ulug'vorligini".

Mabodo siz o'zligingizdan ham ulug'roq inson bo'lishni istasangiz, "berish"ni o'rganing.

Xayr-ehson va ko'ngli siniqlar duosining ahamiyatini baholash imkonsizdir. Hamisha ehsonlaringiz bilan ko'ngillarni obod etishni kanda qilmang...

Yoshlar ilhomi

BAKTLI KELAJAK
TOMON BERILGAN
POYEZO CHIPTASI

MALIKA NABIYEVA,

"MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARINI TASHKIL ETISH HAMDA
BOSHQARISH" TA'LIM YO'NALISHI 2-BOSQICH TALABASI

2022-yil kuz fasli. Poyezdning taqir-tuquri meni baxtli kelajagim tomon olib ketyapti. Yuragimda entik hayajon, nahot shu rost bo'lsa? Ha, men uddaladim, men talaba bo'ldim. Toshkentga ketyapman, binobarin orzularim, maqsadlarim yetakladi shaharga...

Qishlog'im, oilam bilan xayrlashaman. Poyezd biroz shovqin bilan manzilim tomon beparvo harakatlanadi. Men esa, o'rindiqqa singib ketgudek o'tiraman, jiqqa yosh ko'zlarim bilan boshimni suyab olib, oynadan vakzaldagi harakatlanayotgan odamlarga qarayman. Onamning o'sha quvonch aralash yig'i nigohlarini hech ham unutmayman. Tashqari bir oz qorong'u, mening qishloqdagi darsxonamni eslatadi. Derazamdan ko'rinib turadigan oy, tunlari hovlimizdan hukm suradigan sukunat, devorlarda men yodlashim kerek bo'lgan varaqlar, barchasi bilan xayrlashdim.

Mahalla bolalarining tentaknamo hazillari-yu, qo'limda kitob ko'rgan o'sha mahallamiz guzaridagi g'iybatchi xotinlarning "qiynalib o'qib nima qilasan, turmushga chiq, ayolning o'qishi oilasida, o'zim kelin qilaman seni" – kabi gaplarini eslab ketyapman. Barchasini tashlab ketishga kuchni qayerdan topdim hayronman. Ha, menga nisbatan aql bovar qilmas darajada havotirlanadigan otam, mening baxtim uchun jonini yulib berishga tayyor onam, hamda meni yer-u ko'kka ishonolmaydigan akam, har qanday ishda mendan maslahat so'raydigan opam, barcha sho'xliklarni birga qiladigan ukalarimdan uzoqqa ketyapman...

Oilasidan uzoqqa, orzu va maqsadlari tomon ketish, sog'inchning achchiq tamini his qilish kaminaning ham peshonasida bor ekan. Poyezd esa, allaqanday yo'llardan shiddat bilan siljiydi. Bitta daraxtni ko'zdan kechirmasimdan ikkinchisi, uchinchisi keladi. Men esa, ketish haqida hayollarimni tartibga solmoqchi bo'laman, o'zimga vaziyatni tushuntirib ko'rgim keladi...

Men ketyapman, qiziq, juda sovuq eshitilar ekan. Zero, ketishni men 3 yil kutdim. "Men Toshkentga o'qishga kirdim", – deb o'zimga ishonmasdim, yuragim entikib, ichimga sig'mas darajada quvonardim. O'rnimdan qalqib turib, nimadir deyishga og'iz juftladim-u yana joyimga o'nashdim, jimlikka singib kelajagim haqida rejalar tuzib ko'zimga uyqu kelmasdi...

Bir uxlab uyg'onish, bir ko'zimni yumib, ochish lahzasi barchasining gashti boshqacha. Nazarimda, hayot ham tezyurar poyezd kabi shiddat bilan harakatlanayotgandek. Poyezddan tushgandan so'ng meni katta hayot kutib turibdi, endi yosh qizcha emasman. Oilamdan uzoqda o'z kunimni o'zim ko'rish, bilim, salohiyatimni oshirish kabi katta burch va mas'uliyat turganligini his qildim. Biroq, bir kun ortga qaytish bor. Olib ketganlarim hamda olib qaytganlarimga, yana yolg'iz poyezd guvoh bo'ladi. Chiptam "Baxtli kelajak tomon" deb nomlanib, jomadonimda; maqsad, orzu, harakat, ishonch, burch, mas'uliyat, umid bor edi...

Muassis:

O'zbekiston davlat san'at va
madaniyat instituti

Bosh muharrir

Ma'rufjon YO'LDOSHEV

Tahrir hay'ati:

Sobirjon JUMAYEV
Hamdam ISMOILOV

Muharrir:

Dilnoza QURBONOVA

Sahifalovchi:

Abdug'ani SODIQOV

Tahririyat manzili: 100164 Toshkent shahri,

Mirzo Ulug'bek tumani,
Yalang'och mavzesi, 127 A uy.

Telefon: (71) 230-28-03.

(71) 230-28-13.

www.dsmi.uz;
nashriyot@dsmi.uz

O'Ichami – A3, hajmi 4 bosma taboq.

Gazeta 1.08.2024-yilda topshirildi.

Gazeta Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasida № 02-00166
raqami bilan 2012-yil 19-dekabrda ro'yxatga olingan.

Gazeta elektron ko'rinishda havola etilmoqda